
Qarzdor soliq qarzini to'lamagani uchun texnikasi xatlanib, jarima maydoniga olib kirildi

Byuroning Farg'ona shahar bo'limi ish yurituvda bo'lgan Farg'ona viloyat Davlat soliq boshqarmasining 27.05.2022 yilgi qarorlariga asosan qarzdor "FARG'ONA KO'PRIKLARDAN FOYDALANISH" unitar korxonasidan DSI foydasiga 422.653.626 so'm soliq qarzi undirish to'g'risidagi ijro hujjati bo'yicha davlat ijrochisi tomonidan qarzdorga sud qarorini ijrosini ta'minlash yuzasidan ixtiyoriy muddat berilgan.

Lekin, qarzdor ixtiyoriy muddat ichida sud qarorini ijrosini ta'minlash chorasini ko'rmaganligi bois, 14.11.2022 yil kuni majburiy ijro harakatlari o'tkazilib qarzdorga tegishli bo'lgan, balans qiymati 334.175.138 so'mni tashkil qilgan DFZ 5251 GJBA1 rusumli yuk mashinasi ro'yxatga olinib xatlangan va jarima maydoniga olib kirilgan.

Hozirda ushbu xatlangan mulkni auktsion savdolarga qo'yish choralari ko'rilmoqda.

MIB Farg'ona shahar bo'limi

2022-11-16 09:47:31